

“UMUMMADANIY KOMPETENTLIK” TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK MOHIYATI

Olimova Dilrabo Nurali qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim kafedrası

o'qituvchisi

+998977050615 olimovadilraboifora@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu berilgan maqolada kompetentlik yondashuv asosida ta'limda yuz beradigan o'zgarishlar va ularning turlari yoritib berildi. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentligini shakllantirish, ularda umummadaniy kompetentlikni shakllar vositalari haqida batafsil yondashilgan. Yosh avlodni o'z xalqi, jamiyati va yurtiga fidoiylilik ruhida kelajak taqdiri uchun mas'ullikni his eta oladigan, boy milliy madaniy merosimiz va qadriyatimizga hurmat va asrab — avaylash ruhida jamiyatimiz oldida turgan kechiktirib bo'lmaz vazifa ekan, bunda barcha ta'lim — tarbiya ishi bilan shug'ullanish uchun kerak bo'ladigan pedagogic shart sharoitlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, umummadaniy kompetentlik, umummadaniylik tamoyili, pedagogik texnologiya, innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat

ОБЩЕМАДАНИЙ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПОНЯТИЕ И ЕГО ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ

Олимова Дилрабо Нурали кизи

Наманганский государственный педагогический институт

Факультет педагогики Кафедра дошкольного образования

Учитель +998977050615 olimovadilraboifora@gmail.com

Аннотация: В данной статье освещаются изменения в образовании на основе компетентностного подхода и их виды. Подробно рассматривается формирование профессиональной компетентности у будущих воспитателей дошкольных образовательных учреждений, а также средства формирования общей культурной компетентности. Воспитание у молодого поколения чувства ответственности за будущее своей страны, общества и народа, а также уважение и сохранение богатого национального культурного наследия и ценностей является неотложной задачей, стоящей перед нашим обществом. В статье также освещены педагогические условия, необходимые для осуществления всей работы в области образования и воспитания.

Ключевые слова: Компетенция, общекультурная компетентность, принцип общекультурности, педагогические технологии, инновационные процессы, инновационная деятельность

THE CONCEPT OF "GENERAL CULTURAL COMPETENCE" AND ITS PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL ESSENCE

Dilrabo Nurali qizi Olimova,

Teacher at the Department of Preschool

Education, Namangan State Pedagogical Institute

+998977050615 olimovadilraboifora@gmail.com

Abstract: *This article discusses the changes occurring in education based on a competence approach and elaborates on their various types. It focuses on the formation of professional competence among future preschool education educators, particularly emphasizing the methods for developing general cultural competence. Instilling a sense of responsibility in the younger generation towards their nation, society, and homeland is an urgent task for ensuring a dedicated spirit in shaping their future. This involves respecting and preserving our rich national cultural heritage and values. The article presents the essential pedagogical conditions necessary for engaging effectively in educational and developmental activities.*

Keywords: *Competence, general cultural competence, principle of general culturality, pedagogical technology, innovative processes, innovative activities.*

KIRISH

Jahonda umummadaniy kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rish, ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) – «bilim – ko'nikma – malaka»ni oltita birlik – «bilim – ko'nikma – malaka – amaliy faoliyat tajribasi – kompetensiya – kompetentlik» tarzida talqin etilishi asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimi yangi bosqichga olib chiqishga doir ko'plab yangicha yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Ayniqsa bo'lg'usi mutaxassislarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish asosida madaniy ko'nikmalarga ega bo'lish, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish, xalqlarning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur jarayonda tarix fanini o'qitish tizimini modernizatsiyalash va shu asosida tarixiy xotira va tarixiy tafakkurni, tarixiy ideallarga doir bilimlarni rivojlantirishning zamonaviy metodikasini yaratish orqali umummadaniy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik zarurati yuzaga chiqmoqda. Dunyoning ilg'or ilmiy tadqiqot markazlari va institutlarida pedagogik

kompetentlikni rivojlantirish tizimini takomillashtirish, bo'lg'usi kadrlarda umummadaniy kompetentlikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish asosida tarixiy-madaniy ko'nikmalarni bilish, anglash va ularga ega bo'lish, tarixiy ideallarga doir bilimlarini o'stirish asosida tarixiy haqiqatlarga ob'ektiv munosabatini qaror toptirishga doir ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar orqali jamiyatlarning tarixiy xotirasni reallashtirish, tarixiy tafakkurini turli uydirmalardan tozalash, tarixiy ideallarning qahramonligi, vatanparvarligi, ilmfan, san'at, din, boshqaruv va boshqa ijtimoiy munosabatlardagi faolligini yoritish orqali umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish ham maqsad qilinmoqda. Bunday xalqaro ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda bo'lg'usi o'qituvchilarda tarixiy ideallarga oid bilimlar asosida umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi O'zbekiston strategiyasida tarixiy-ma'naviy omil, ya'ni xalqimizning ulkan madaniy merosi, intellektual salohiyati asosida tarixiy ideallarga oid xolis munosabatni va dunyoqarashni shakllantirish va shu asosida "milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruxda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish" 1 dolzarb ilmiy-pedagogik vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu orqali "o'tmishdagi yutuq va g'alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag'lubiyatlaridan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan" 2 umummadaniy dunyoqarashi rivojlangan jamiyatni yaratish zarurati yuzaga kelmoqda. Buning uchun "yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatish, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirish" 3 orqali umummadaniy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, bo'lajak kadrlarda ham umummadaniy kompetentlikni shakllantirish tizimini takomillashtirish talab etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son4 , 2019 yil 8 oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son Farmonlari5 , 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son Qarori, 2018 yil 28

noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-4038-sonli Qarorlari mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lg'usi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari bilimlar asosida umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish muammosini o'rganilishiga aloqador tadqiqot ishlarini ikki qismga ajratgan holda tahlil etish maqsadga muvofiq. Bo'lajak pedagoglarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlari ham birmuncha keng va tizimli izlanishlar asosida olib borilganligini ko'rish mumkin. O'zbekistonlik olimlardan M.Aripov E.Yusupov, N.Komilov, X.O.Shayxova, V.Alimasov, M.Jakbarov, E.Umarov, A.Choriyev, A.Qodirovlarning asarlari, E.M.Izzetova, R.R.Burnashev va S.S.Agzamxodjayevaning dissertatsiyalarida ijtimoiy-tarixiy ideal masalalari o'rganilgan. Shuningdek, o'zbek xalqi tarixini puxta bilish, tarixiy jarayonlar mohiyatini to'g'ri anglash, ijtimoiy voqea-hodisalarga ongli munosabat bildirish, xalq qahramonlarining faoliyatidan ibrat olish talabalarning milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lishlariga yordam beradi. Bu o'rinda U.Abduvahobov, A.Abdullayev, T.Abdullayev, D.G.Abuladze, E.Azimov, A.Aliyev, B.Aminov, Sh.Atajonova, A.Ahmedov, B.Ahmedov, X.Bobomirzayev, I.G.Galiulin, I.Mo'minov, X.Samatov, X.Shayxoalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularda milliy-tarixiy jarayon, uning shaxsda milliy-etnik xususiyatlarni shakllantirishga ta'siri, xalq o'tmishi, boy tarixi va uning jahon taraqqiyoti tarixida tutgan o'rniga munosabat masalalari yoritilgan. Bo'lajak pedagoglarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy4 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son 5 <https://lex.uz/docs/-4545884> 7 pedagogik, antropologik va akmeologik masalalarini Z.Ismailova, Sh.Mardonov, O.Musurmonova, N.Ortiqov, B.Raximov, D.Ro'ziyeva, D.Sharipova, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonova, N.Egamberdiyeva, M.Quronovlar; bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy faollikni rivojlantirish masalalari M.Raxmanova, M.Quronov, X.Tojiboyeva, G.J.Tulenova, Q.Quranboyev; ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish borasida

N.Abdumuratova, D.Nafasov; ma'naviy va badiiy qadriyatlarning tarixiy-falsafiy, axloqiy-estetik mazmun-mohiyati A.G.Abdunabiyev, B.Abduraximov, S.Sh.Alimov, A.Erkayev, F.A.Babashev, E.Umarov, M.Abdullayev, E.Xakimov, N.Y.Jurabayevlar tomonidan o'rganilgan. Psixolog olimlardan M.Davletshin, V.Karimova, A.Leontev, A.Maslou, Z.Nishonova, L.Rubinshteyn, N.Safayev, E.G'oziyev kabilar tomonidan muammoning psixologik jihatlarini o'rganilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida madaniy kompetentlikni ta'limga tatbiq etish, bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish masalasi T.B.Alekseyeva, G.M.Galutskiy, I.F.Isayev, Y.N.Shiyanov, V.Davidov, B.Lednev, S.K.Annamuratova, N.M.Egamberdiyeva, C.Z.Goncharova, V.L.Kraynik, N.Y.Shurkova va boshqalar tomonidan ilmiy asosda o'rganilgan. Bo'lg'usi pedagoglarda ijtimoiy-tarixiy ideallarga doir bilimlarini rivojlantirish masalasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan va bugunga qadar ham izchil o'rganilib kelinmoqda.

NATIJALAR VA TAHLILLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablarini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo'lishidan qat'i nazar barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir. Rejalashtirilgan barcha ishlarni amalga oshirish ko'p jihatdan yoshlarimiz, fuqarolar va ularning vatanparvarligi, insoniyligiga bog'liq ekanini ta'kidladi: «Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishi, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotiga nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutmog'imiz kerak». Yosh avlodni o'z xalqi, jamiyati va yurtiga fidoiylilik ruhida kelajak taqdiri uchun mas'ullikni his eta oladigan, boy milliy madaniy merosimiz va qadriyatimizga hurmat va asrab — avaylash ruhida jamiyatimiz oldida turgan kechiktirib bo'lmas vazifa ekan, bunda barcha ta'lim — tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchi xodimlardan katta- katta ishlarni bajarishni talab etadi.

Forobiyning fikricha, insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l-ta'lim va tarbiya orqali hosil qilinadi: "Ta'lim nazariy fazilatlarni birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma

fazilat – nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta'lim so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, har ikkalasi birlashsa, etuklik namoyon bo'ladi...". Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyani o'zviy birlikda olib borish haqida ta'lim bergan bo'lsa ham, har birining insonni kamolga etkazishida o'z o'rnini va xususiyatini borligini alohida ta'kidlaydi.

Kompetensiya tushunchasi mano jihatidan ko'nikma, muayyan bilim va yohud malakalar majmuasi. Kompetensiya – biror bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan mutaxassisning ta'limiy tayyorgarligiga qo'yilgan talabdir. U davlat ixtiyorida bo'lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo'lib, kompetensiya o'quvchi yoki ishchining muayyan sohada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan ta'limiy tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladi. Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi va mazmunidan kelib chiqqib, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi. Mavzumizdan kelib chiqqan holatda Milliy va umummadaniy kompetensiya deganda — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. O'zaro bog'liq va rangbarang dunyoda talabalarni milliy va madaniy kompetensiyalar bilan jihozlantirish juda muhimdir. Ushbu imkoniyatlar talabalarga turli xil madaniy kontekstlarni tushunish, qadrlash va navigatsiya qilish, o'zaro hurmat va samarali muloqotni rivojlantirishga imkon beradi. Pedagogik kompetensiyalar deganda o'qituvchilar o'rganishni samarali osonlashtirish va o'quvchilarning rivojlanishiga ko'maklashish uchun ega bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlar tushuniladi. Ushbu vakolatlar keng imkoniyatlarni o'z ichiga oladi, shu jumladan o'qitish dizayni, sinfni boshqarish, baholash va fikr-mulohazalar, aloqa va ijobiy o'quv muhitini rivojlantirish. Bu erda o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan ba'zi asosiy pedagogik vakolatlar mavjud: Mustahkam poydevor qo'yish uchun milliy va madaniy vakolatlarni targ'ib qiluvchi pedagogic strategiyalar bo'yicha tegishli adabiyotlarni o'rganish juda muhimdir. Ilmiy asarlar talabalarning madaniy ongi va sezgirligini tarbiyalashda ko'p

madaniyatli ta'lim, madaniyatlararo kompetentsiya va madaniy ta'sirchanlikning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ular talabalarning turli madaniyatlar haqidagi tushunchalarini shakllantirishda va o'z milliy o'ziga xosligini hurmat qilishda inklyuziv o'quv dasturlari, madaniy jihatdan tegishli o'quv materiallari va tajribaviy ta'lim imkoniyatlarining rollariini ta'kidlaydilar. Pedagogik kompetentsiyalarni turli usullar va yondashuvlar orqali rivojlantirish hamda yanada takomillashtirish mumkin. O'qituvchilarda pedagogik kompetentsiyalarni tarbiyalashning ba'zi samarali usullariga quidagilarni misol qilamiz: Malaka oshirish bo'yicha seminarlar va kurslar: seminarlar, seminarlar va malaka oshirish kurslarida qatnashish o'qituvchilar uchun yangi pedagogik kompetentsiyalarni egallashning samarali usuli hisoblanadi. Bu kabi imkoniyatlar aniq o'qitish strategiyalari, o'qitish texnologiyalari, sinflarni boshqarish texnikasi, baholash usullari va boshqa aloqador mavzular bo'yicha chuqur o'qitishni ta'minlaydi. Kasbiy rivojlanish o'qituvchilarga ta'lim sohasidagi so'nggi tadqiqotlar va ilg'or tajribalar bilan rivojlanishga imkon beradi. Tengdoshlarni kuzatish va fikr-mulohazalar: tengdoshlarni birgalikda kuzatish va fikrmulohazalar pedagogik kompetentsiyalarni rivojlantirish uchun samarali usul bo'lishi mumkin. O'qituvchilar o'z hamkasblarining o'qitish amaliyotini kuzatishi va kelishilgan mezonlar asosida konstruktiv fikr bildirishi mumkin. Tengdoshlarni kuzatish o'qituvchilarga yangi istiqbollarni egallashga, samarali o'qitish strategiyalarini baham ko'rishga va o'zlarining o'qitish amaliyotlari to'g'risida fikr-mulohazalarni olishga imkon beradi. Bu kollegiallik madaniyatini targ'ib qiladi va doimiy kasbiy o'sishni qo'llabquvvatlaydi. Ushbu usullarni birlashtirib, o'qituvchilar o'zlarining pedagogik vakolatlarini doimiy ravishda rivojlantirishlari va takomillashtirishlari mumkin. Bu davom etayotgan professional o'sishini rag'batlantiradi qo'llab-quvvatlovchi va hamkorlikdagi muhitini yaratish uchun muhim ahamiyatga ega, bu muhit bizga mulohaza va ta'limni beradi. Oxir oqibat, ushbu sa'y-harakatlar yuqori sifatli o'quvtajribalarini yaratishga va talabalarning ijobiy natijalarini rivojlantirishga yordam beradi. Milliy kompetentsiyalarni targ'ib qilish uchun o'qituvchilar o'z mamlakatlari tarixi, an'analari va qadriyatlarini o'rganadigan tadbirlarni loyihalashlari ham samaralidir. Milliy o'ziga xoslik va fuqarolik bo'yicha tanqidiy fikrlash va muloqotni

rag'batlantirish tegishlilik hissi va faol fuqarolik faolligini oshiradi. Xuddi shunday, madaniy kompetentsiyalar talabalarni turli xil madaniy amaliyotlar, bayramlar va tillarga ta'sir qiladigan, ularga turli xil madaniy meroslarni qabul qilish va qadrlash imkoniyatini beradigan tadbirlar orqali ham rivojlanishi mumkin. Umumiy madaniy kompetensiya ko'plab zamonaviy pedagog va psixologlarning asarlarida qayd etilgan. Ular bilim olishning ma'nosini izlash va o'qitish usullarini tanlashda ma'lum bosqichlar muhim ekanligiga ishonch hosil qilishadi: Bolaning o'rganilayotgan tabiiy yoki ijtimoiy ob'ektlarga nisbatan shaxsiy ijodi, ular turli ta'lim sohalariga muvofiq taqsimlanadi. Talabaning o'z tajribasi, umumiy madaniy ob'ektlar va qadriyatlarni o'rganish jarayonida olgan bilimlaridan xabardorligi. Lavozim, shuningdek, ijtimoiy tajriba va umumiy madaniy bilimlarga shaxsiy munosabat. Umumiy madaniy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bolaga jamiyatdagi o'z o'rnini anglash, o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirishga intilishga yordam beradi. Ta'limga kompetentsiyalar kabi elementlar kiritilgandan so'ng, ikkinchi avlod ta'lim standartlari ishlab chiqilgani bizga malum.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda ta'lim mazmuni bo'yicha kompetensiyalar meta-predmet, predmetlararo, predmetga bo'linadi. Meta-mavzu istalgan fan sohalari uchun xosdir, lekin fan kompetensiyasi o'quv intizomi uchun ajratilgan. Ta'limning har bir bosqichida o'quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda talablarning o'ziga xos variantlari ajratiladi. Umumiy madaniy kompetensiya milliy xususiyatlar va umuminsoniy madaniyat, inson hayotining ma'naviy-axloqiy asoslari bilan bog'liq. U alohida xalqning va butun insoniyatning oilaviy, ijtimoiy, ijtimoiy an'analari va urf-odatlari asoslarini ko'rib chiqadi. Aynan shu kompetensiya dinning jamiyat taraqqiyotiga, aholi o'rtasida ma'naviyat shakllanishiga ta'sirini tushuntirish bilan bog'liq. Bundaymilliy va umummadaniy kompetensiyalar talabaning kelajak hayotda o'z o'rnini topishiga, milliyligini unutmagan holda rivojlanishiga yordam beradi desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi / Xalq so'zi, 2018-yil, 28-dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017- y.,1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018 y.
3. "Bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik tizimini shakllantirish" mavzusidagi ilmiy maqola. Ta'lim,Fan va Innovatsiyalar 5-son, 2024-yil D.N.Olimova
4. Qodirova F.R, Toshpo'latova Sh.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.
5. Axmedjanov M.M., Xo'jayev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat- Buxoro Davlat universiteti, 2014
6. Tarbiyachilarning umummadaniy kompetentligini shakllantirish tamoyillari. Ilmiy maqola D. N. Olimova